



ACADEMIC SPECTRUM

2026-yil 1-son

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

ISSN

3093-9089

Вухоро - 2026



ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

№ 1-Son 2026-yil

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi
№1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**

BOSH MUHARRIR:

Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Olimov Shirinboy Sharofovich — pedagogika fanlari doktori, professor
(Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasini mudiri).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Safarov Dilmurod Xalimovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo‘yicha direktor
o‘rinbosari)

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo‘yicha
birinchi prorektor).

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini professori).

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrasini dotsenti).

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Mas‘ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti
Psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi

EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Valeriy Vladimirovich Kuleshov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Elena Vasilyevna Andrienko — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Tatyana Aleksandrovna Romm — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Shirinboy Sharofovich Olimov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the “Pedagogy” Department).

Lochin Rustamovich Zaripov — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improvement of Educational and Methodological Activities).

Dilmurod Xalimovich Safarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

Akmal Mardonovich Nazarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Bukhara State University, First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work).

Shavkat Shuhrat o‘g‘li Rustamov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Head of the “Psychology” Department).

Feruz Furqatovich Ganjiyev — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the “Psychology” Department).

Dilafruz Tuymuratovna Ismatova — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).

Sodiqjon Saidjonovich Mukhlisov — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Information Systems and Digital Technologies” Department).

Muxtor Hasan o‘g‘li Tilavov — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.



ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андрienко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационных и технологических наук, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарных и социальных наук, г. Новосибирск, Россия).

Олимов Ширинбой Шарофович — доктор педагогических наук, профессор (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

Зарипов Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления совершенствования учебно-методической деятельности).

Сафаров Дилмурод Халимович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по академической деятельности).

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Бухарский государственный университет, первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе).

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Психология»).

Ганжиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

Исмадова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Информационные системы и цифровые технологии»).

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Xasanova Nazokat Shavkatbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Turizm fakulteti Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 24.2-guruhi talabasi

INSON HUQUQLARINI XALQARO HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Maqolada inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish tizimining mohiyati, shakllanish jarayoni va zamonaviy ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi. Inson huquqlari Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biriga aylangan bo'lib, BMT Nizomi va 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ushbu tizimning huquqiy asosini yaratgan. BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashi, Oliy komissiya boshqarmasi, shartnomaviy qo'mitalar hamda universal davriy ko'rib chiqish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, Yevropa, Amerika va Afrika mintaqaviy sudlarining qarorlari xalqaro standartlarni shakllantiruvchi samarali institutlar sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro huquq, BMT, xalqaro konvensiyalar, universal standartlar, inson huquqlari kengashi, mintaqaviy, organ, samaradorlik, qo'mita, Janubi-Sharqiy Osiyo, kafolat, muhofaza.

Аннотация. В статье проводится научный анализ сущности, процесса формирования и современного значения системы международной защиты прав человека. После Второй мировой войны права человека стали одним из основополагающих принципов международного права, а Устав ООН и Всеобщая декларация прав человека 1948 года заложили правовую основу данной системы. Освещается деятельность Совета ООН по правам человека, Управления Верховного комиссара по правам человека, договорных комитетов, а также механизмов универсального периодического обзора. Кроме того, решения региональных судов Европы, Америки и Африки рассматриваются как эффективные институты, формирующие международные стандарты в области прав человека.

Ключевые слова: международное право, ООН, международные конвенции, универсальные стандарты, Совет по правам человека, региональные органы, эффективность, комитет, Юго-Восточная Азия, гарантии, защита.

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the essence, formation process, and contemporary significance of the international human rights protection system. Following the Second World War, human rights became one of the fundamental principles of international law, with the UN Charter and the 1948 Universal Declaration of Human Rights establishing the legal foundation of this system. The activities of the UN Human Rights Council, the Office of the High Commissioner for Human Rights, treaty bodies, and the Universal Periodic Review mechanisms are examined. In addition, the decisions of regional courts in Europe, the Americas, and Africa are considered effective institutions contributing to the development of international human rights standards.

Key words: international law, United Nations, international conventions, universal standards, Human Rights Council, regional bodies, effectiveness, committee, Southeast Asia, guarantees, protection.

Kirish. Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida inson huquqi muhim ahamiyat kasb etib, ushbu jamiyatning demokratik taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi asosiy me'zon, davlatning insoniyligini belgilovchi barometr bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy ma'nfaatlarini himoya qilish global miqiyosdagi masalardan biriga aylandi. Xalqaro huquq bu borada muhim ro'l o'ynaydi, chunki u inson huquqlarini universal standartlar asosida tan olish va himoya qilishga qaratilgan. Inson huquqi bo'yicha xalqaro andozalar inson huquqini xalqaro va milliy darajada himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi

Xalqaro huquqning asosiy maqsadi-barcha insonlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik va ularning qadr-qimmatini hurmat qilishdan iborat. Ushbu maqolada inson huquqlarini xalqaro huquq sohasidagi o'rni, himoya qilish mexanizmlari yoritiladi.

Inson huquqlari sohasida xalqaro huquq bir qator muhim vazifalarni bajaradi:

1. Universal standartlarni belgilash: Xususan, xalqaro huquq, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro shartnomalar orqali inson huquq va erkinliklarining universal standartlarini belgilab beradi. Bu standartlar barcha davlatlar uchun majburiy bo'lib, ularning ichki qonunchiligida aks ettirilishi kerak.

2. Davlatlar o'rtasida hamkorlikni ta'minlash: xalqaro huquq davlatlar o'rtasida inson huquqlarini himoya qilish borasida hamkorlikni ta'minlaydi. Davlatlar o'z hududlarida inson huquqlarini himoya qilish, shuningdek, boshqa davlatlarning inson huquqlarini buzishiga yo'l qo'ymaslikka majbur.

3. Nazorat va monitoring mexanizmlarini yaratish: Xalqaro huquq inson huquqlariga rioya qilinishi ustidan nazorat va monitoring olib borish uchun turli mexanizmlarni yoritadi. Bu mexanizmlar inson huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar va boshqa tuzilmalarni o'z ichiga oladi.

Asosiy qism. Inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish g'oyasi tarix davomida bosqichma-bosqich shakllanib borgan bo'lsa-da, uning to'liq huquqiy tizim sifatida paydo bo'lishi XX asrga to'g'ri keladi. Insoniyat boshidan kechirgan urushlar, mustamlakachilik siyosati, irqiy kamsitishlar va ommaviy qirg'inlar xalqaro hamjamiyatni inson sha'ni, qadr-qimmatini va erkinliklarini huquqiy kafolatlar bilan himoya qilish zarurligiga olib keldi. Shu asosda xalqaro huquqda inson huquqlarini himoya qilishning universal tamoyillari va tashkilotlari shakllandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti mazkur jarayonda asosiy global institut sifatida maydonga chiqdi. BMT Nizomida inson huquqlari xalqaro tinchlik va barqarorlikning asosiy mezonini ekani qayd etilgan bo'lib, 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi butun tizimning huquqiy-siyosiy poydevorini yaratdi. Keyingi yillarda fuqarolik-siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar, ayollar huquqlari, bolalar huquqlari, nogironlar huquqlari, qiynoqlarning oldini olish kabi yo'nalishlarda qator xalqaro konvensiyalar shakllantirildi. Mazkur hujjatlar inson huquqlarining konkret standartlarini belgilab, davlatlar uchun majburiy bo'lgan me'yoriy tizimni yaratdi.

Inson huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmlari nafaqat hujjatlar qabul qilish bilan cheklanmaydi, balki ularning amalda bajarilishini nazorat qiluvchi organlar faoliyati bilan mustahkamlangan. BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashi davlatlar tomonidan inson huquqlari sohasida yo'l qo'yilayotgan buzilishlarni o'rganadi, maxsus ma'ruzachilar tayinlaydi va universal davriy ko'rib chiqish jarayoni orqali davlatlarning majburiyatlarini baholaydi. Shartnomaviy qo'mitalar esa mamlakatlar tomonidan imzolangan konvensiyalar ijrosini nazorat qiladi, ular tomonidan taqdim etilgan milliy hisobotlarni ko'rib chiqadi va tavsiyalar beradi. Ayrim qo'mitalarga jismoniy shaxslarning xalqaro shikoyat yuborish huquqi ham berilgan bo'lib, bu fuqarolarga milliy sud himoyasi yetarli bo'lmagan holatlarda xalqaro adolatga murojaat qilish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda inson huquqlarini himoya qilish faqat global darajada emas, balki mintaqaviy miqyosda ham keng rivojlangan. Yevropa, Amerika va Afrika qit'alarida inson huquqlariga oid sudlar faoliyat yuritib, davlatlar ustidan majburiy kuchga ega bo'lgan qarorlar chiqaradi. Yevropa inson huquqlari sudi eng samarali mintaqaviy institutlardan biri sifatida tan olingan bo'lib, uning ko'plab prezident qarorlari xalqaro huquqning yangi standartlarini shakllantirgan. Osiyoda bunday sud turining yo'qligi sababli, asosan BMT mexanizmlariga tayaniladi, lekin Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'zaro hamkorlik doirasida inson huquqlariga oid institutlarni shakllantirishga harakat qilmoqda.

Inson huquqlarining buzilishi ko'pincha harbiy mojarolar bilan bog'liq bo'lgan holatlarda xalqaro gumanitar huquq normalari muhim ahamiyat kasb etadi. Jeneva konvensiyalari va ularning qo'shimcha protokollari qurolli to'qnashuvlarda tinch aholining, harbiy asirlar va muhofazaga

muhtoj shaxslarning huquqlarini himoya qiladi. Xalqaro jinoiy sud esa genotsid, harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlar kabi eng og‘ir huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlikni amalga oshiradi. Sudning mavjudligi davlatlarning jazosizlikka yo‘l qo‘ymasligini, xalqaro huquqning ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalqaro nohukumat tashkilotlar ham inson huquqlari mexanizmlarida katta rol o‘ynaydi. Ular mustaqil monitoring, xalqaro axborot tarqatish, davlatlar ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi usullar orqali global darajadagi himoya tizimini boyitadi. Ularning faoliyati ko‘pincha xalqaro institutlar uchun mustaqil ma‘lumot manbai vazifasini bajaradi.

Inson huquqlarini himoya qilish uchun xalqaro huquqda bir qator mexanizmlar mavjud. Ular:

1.Xalqaro shartnoma va konvensiyalar: Birlashgan Millatlar Tashkilot va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro shartnomalar va konvensiyalar inson huquqlarini asosiy manbai hisoblanadi. Bularga: Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi; Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakt; Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakt; Ayollar huquqlarini to‘g‘risidagi konvensiya; Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya va boshqa ko‘plab shartnomalar kiradi.

2.Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha organlari: Birlashgan Millatlar Tashkilot tarkibida inson huquqlarini himoya qilish va nazorat qilish bilan shug‘illanadigan bir qator organlar mavjud.Bularga Inson Huquqlari Kengashi, Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissiya boshqarmasi va shartnomaviy organlar kiradi.

3.Mintaqaviy inson huquqlari mexanizmlari: Yevropa Inson Huquqlari Sudi, Amerika Inson Huquqlari Sudi, Afrika Inson Huquqlari Sudi kabi mintaqaviy sudlar inson huquqlarini himoya qilishda muhim ro‘l o‘ynaydi.Bu sudlar o‘z mitaqaolari doirasida inson huquqlari buzilgan holatlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qarorlar chiqaradi.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquq bir qator tamoyillarga asoslanadi:

- Inson huquqlarining universalligi;
- Inson huquqlarining ajralmasligi ;
- Inson huquqlarining o‘zaro bog‘liqligi;
- Kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik;
- Javobgarlik.

Inson huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmlarining samaradorligini oshirish murakkab masala bo‘lib, bir qancha omillarga bog‘liq. Ushbu mexanizmlar, jumladan, xalqaro shartnomalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining huquqni himoya qiluvchi institutlari va xalqaro sudlar samarali natijalar berishi mumkin. Biroq, ularning samaradorligi siyosiy irodaning yetishmasligi, davlatlarning o‘z majburiyatlaridan voz kechishi va amaliy yordamning noaniqligi kabi omillar tufayli cheklangan. Shuning uchun mexanizmlarning samaradorligini baholashda ularning kuchli va zaif tomonlarini ham inobatga olish kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmlari ko‘p bosqichli, murakkab va institutsional tizim bo‘lib, u jahon xavfsizligining, barqaror taraqqiyotning va demokratik qadriyatlarning asosiy omillaridan biridir.Bu tizimning samaradorligi davlatlarning xalqaro me‘yorlarga rioya qilishi, fuqarolik jamiyatining faolligi, xalqaro institutlarning mustaqilligi va jazosizlikka yo‘l qo‘ymaslik tamoyilining qat‘iy amalga oshirilishiga bog‘liq. Bugungi global siyosiy muhitda inson huquqlarining kafolatli himoyasi nafaqat alohida davlatlar, balki butun insoniyatning umumiy mas‘uliyati sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqiy normalar sharhi. Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazi. Inson huquqlarining xalqaro kafolatlari. Toshkent, 2021.
3. Qodirov, Q., Rafiqov, B. Xalqaro huquq: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
4. Karimov, A. Xalqaro tashkilotlar va inson huquqlari. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasi, 1948.
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. Nyu-York, 1966.


MUNDARIJA:

Nazarov Akmal Mardonovich		Talabalarda kreativ va innovatsion ilmiy faoliyatning psixologik jihatlari	6
Rustamov Shuxratovich	Shavkat	Talabalarni innovatsion kompetenligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	10
Ostanov Sharifovich	Shuxrat	Art-terapiya metodlari yordamida talaba-yoshlarning kreativ fikrlash va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning psixologik asoslari	14
Axmadov Rahmat o'g'li	Nazirjon	O'smirlarda konstruktiv xulq-atvorni shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari	19
Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li		Sud psixologik ekspertizasida shaxsning emotsional holatini baholash	24
Axtamova G'ayratovna	Ferangiz	O'smirlik davridagi destruktiv xulq-atvorni psixoprofilaktika qilish va kreativlikni faollashtirishga yo'naltirilgan psixologik yondashuvlar	30
Ashrapov Namoz o'g'li	Nodirbek	O'smirlarda kognitiv rivojlanishning ijtimoiy-psixologik determinantlari va ularning shaxsiy rivojlanishdagi o'rni	35
Hamroyev Jasur		Talabalari o'rtasida sun'iy intellekt vositalari yordamida kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish	40
Axmedova Rahmat qizi	Zarina	Loyihaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning fasilitatorlik faoliyatiga tayyorlash mexanizmini takomillashtirish	44
Khakimov Shodieich	Shukhrat	Methods of studying the military servant and the military team	49
N.Z.Jumayev		Raqamli davrda ijtimoiy media va sun'iy intellektning yoshlar ruhiy salomatligiga ta'siri	56
Sharopov Suxrob Shodi o'g'li		Talabalarni kognitiv va metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari	60
Boboqulova Komil qizi	O'g'iloy	Shaxslararo manipulyatsiya va nazorat mexanizmlari: emotsional ekspluatatsiyaning psixologik asoslari	64
Saidova Nu'monovna	Nodira	Yoshlar kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik psixologiyaning roli	68
Bobojonova Husniddin qizi	Dilnura	Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarda adaptatsiya jarayoni rivojlanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari	73
Абдужабборов Тохиржон Курбанович		Особенности течения и лечения atopического дерматита в зависимости от возраста по данным наблюдений в андижанской области	78

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich Narzullayeva Iroda Jaloliddin qizi	Tijorat banklarida investitsiyalarni jalb etishda xorij tajribasi	82
Nurmuxammedova Nilufar Alijon qizi Temirova Mashhuraxon Muhammadaminovna	O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichida xotin-qizlar liderlik faoliyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarining mustahkamlanishi	89
Maxmudova Zulfiya Mexmonovna	Qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	92
Sanoyeva Mohigul Odil qizi	Klassik pedagogik merosni modernizatsiya qilishning zamonaviy talablari va ularni ta’lim amaliyotiga joriy etish mexanizmlari	103
Xolmirzayeva Mushtariybegim U. Abdullayev	Bobi oliy: usmonli davlatining boshqaruv markazi va evolyutsiyasi	107
Dilmurodov Elyorjon Ilg'or o'g'li	Civil society and globalization: the harmony of national values and modern trends	110
Eshpo'latova Xilola Davron qizi	Fransuz tilini o'rganish jarayonida audiovizual materiallar yordamida talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish	116
Abdusalimova Zukhraxon Bakhtiyor qizi	Teaching methodology of the uzbek language for the foreign students	119
Abdullayeva Dildora Muhiddin qizi	Frazeologik sinonimlarning struktur turlari	122
Panaeva Sarbinaz Uzaqbergenovna	Insonlar orasida fabbing (phubbing) holatining paydo bo‘lishi va uning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini	125
Toshturdiyev Nurbek Nurali o‘g‘li	Jadid ziyolilarining hayot tarzi va ijtimoiy mas’uliyat hissi: ma’rifat va fidoyilik omillari	130
Uzoqova Gulzoda	Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi	134
Xilola Xolikova Gulamovna, Siroj Nematov G‘ulom o‘g‘li,	Maktab muhitining o‘quvchilar emotsional holatiga psixologik ta’siri	137
Sultonmurod Mamasoliyev Olimjon o‘g‘li	Psychological benefits of gamified bilingual learning: a meta-analysis of motivation and well-being	141
Qodriqulova Fotima Ulug‘bek qizi	Azot fiksatsiyasi va innovatsiyalar: yasmiq yetishtirishning yangi bosqichi	146
Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna	Turkiy adabiyotda shaxs kamoloti: Hofiz Xorazmiy didaktik qarashlari misolida pedagogik model	150
Obidova O.	Ta’lim psixologiyasi nuqtayi nazaridan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta’siri	154
Xasanova Nazokat Shavkatbek qizi	Inson huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmlari	159
Abdug‘ofurov Muhammadqodir	Milliy me’morlik uslublarida zamonaviylik va restavratsiya muammolari	163

Olimova Sarvara Sobitxon qizi		Nogironligi bo'lgan shaxslarning kutubxonalar orqali ijtimoiy integratsiyasi va madaniy hayotga qo'shilishi	166
Jamaldinov Azimjanovich	Sarvar	Raqamli ta'lim jarayonlarini o'rgatishning bo'lajak pedagoglar tarbiyaviy faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati	171
Olimova Sarvaraxon Sobitxon qizi		Sensorinevral eshitish nuqsoniga ega bolalarda rivojlanish dinamikasi: tibbiy va pedagogik qarashlar	176
Mamatqulov Botir		The interpretation of personal tragedy in the short stories of nazar eshonqul	181
Bobokalonov Ostonovich	Rajab	Tibbiy terminlarda lisoniy lakuna hodisasi	188
Murodjonova Dilzoraxon qizi	Tolibjon	“Tolerantlik” tushunchasining mazmun mohiyati	191
Iskandarov Abdug'aniyevich	Sherzod		
Туйбаева Бахтияровна	Саида	Психологические механизмы самозащиты студентов	194
Tursunbayeva Durdonaxon qizi	Adxamjon	Atrof-muhitni muhofaza qilishning zamonaviy konsepsiyalari: muammo va yechimlar	198
Ismoilova Saidali qizi	Zulayho	Umumta'lim maktablarida xulqi og'ishgan o'quvchilarning shaxs xususiyatlarini kompleks diagnostika qilish	203
Masharipova Rahimovna	Saida	Zamonaviy oilalarda emotsional intellektni boshqarishning ijtimoiy- psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish	208
Abdujobborova Rayhona Adhamjonqizi		Xotira turlaridan qanday qilib samarali foydalanish kerak.o'quvchilar uchun praktik tafsiyalar	212
Arslanova Aleksandrovna	Dilnoza	Nutqiy rivojlanish bilan mantiqiy fikrlash o'rtasidagi bog'liqlik: lingvistik kompetensiya.	216
Mirzayev Xasanjon o'g'li	Ismoiljon		
Xasanova Kumushbek qizi	Aziza	Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar	219
Xolboyev Axmadillo o'g'li	Izzatillo	Talabalarining akademik muaffaqiyatiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning tahlili: o'zini- o'zi tartipka solish strategiyalari	223
Кабулов Толыбаевич	Саулат	Основные принципы и теория преподавания русскому языку и литературе	226
Saitova Komila G'ulom qizi		Stressga chidamlilikning psixologik determinantlari: ong, iroda va emotsional o'zini boshqarishning o'zaro aloqasi	231
Ro'ziyeva Sitora qizi	Sitora Odil	Nega ingliz tili dunyo tili hisoblanadi?	234
To'ychiyeva Sherquzi qizi	Madinaxon	Mustaqil ta'lim metodlarining o'quv motivatsiyasiga ta'siri	237
Murodjonova Dilzoraxon qizi	Tolibjon	Kimyoning kriminalistikadagi o'rni	240

To‘rayeva Nosirovna	Gulnora		
Qudratova Bahromovna	Nozima	Tog‘ay Murod asarlarining til xususiyatlari	244
Pak Aleksandrovna	Diana	Yangi O‘zbekistonda ota-onalar universitetining maktabgacha ta‘limdagi tarbiyaviy funksiyalarini kengaytirish mexanizmlari: muammolar va yechimlar	248
Qurbonova Mamat qizi	Zamira		
Abdullayeva Madinaxon Alisher qizi		Inglizcha varvarizmlarning o‘zbek tilidagi genderga xos qo‘llanish xususiyatlari	251
Ibrohimova Vahobjonovna	Halima	Mamlakatimizda yoshlarning internet tarmogidan tog'ri fodalanihini nazorat qilish	254
Soliyev Sobirovich	Ilhomjon	Eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq rivojlanishining logopedik asoslari	258
Akmalova Akmal qizi	Bahora	Erta bolalik davrida ijtimoiy-emotsional va psixologik rivojlanish	261
Alimjonova Fazliddin qizi	Sabina	Vatan himoyasi - jasorat ifodasi	265
Ganjiyev Furqatovich	Feruz	Globalashuv davrida agressiv o‘smirlar jamiyatga moslashishining ijtimoiy-psixologik determinantlari	269
Zuxriddinova Dilshodbek qizi	Risola	Tuban suvo‘tlarining ekologiyadagi ahamiyati	274
Ibodulloyev Sheraliyevich	Nurali	Integrativ yondashuv asosida otmlarida ta‘lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirish omillari	278
Umirbekova Kenesbaevna	Nasiba	Axborot globalashuv jarayonida o‘smirlarning O‘z-o‘zini anglash transformatsiyasi jarayonlarini shakllantirishga ta‘sir etuvchi omillar tahlili	282
Yarashov Lazizovich	Azizbek	Correlation analysis of factors of social psychological competence of forensic psychologist expert	286
Ondayev Shuhrat Hasanovich		Profilaktika inspektorlarida kasbiy deformatsiyaning oldini olishning psixologik xususiyatlari	294
Narmuradova Uktamovna	Rayhon	Jinoyat sodir etishda affekt holatining psixologik va huquqiy bahosi	298
Jumayeva Elmurodovna	Laylo	Pedagogik jarayonda nutq texnikasining ta‘lim samaradorligiga ta‘siri	301



“ACADEMIC SPECTRIUM” ILMIY METODIK JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“ACADEMIC SPECTRIUM” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “ACADEMIC SPECTRIUM” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o’zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo’lgan asosiy talablar:

✚ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;

✚ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro’yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 3-8 betgacha;

✚ maqola nomi, annotatsiya (50-60 ta so’z) va tayanch so’zlar (8-10 ta) ingliz, o’zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida mavzu, muallifning F.I.O. (to’liq yozilishi

kerak), mualliflar bir nechta bo’lsa, ularning har biri haqida to’liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko’rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro’yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o’ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo’lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to’liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro’yxatda ko’rsatiladi. Matn ichidagi ko’chirmadan so’ng iqtibos olingan asarning ro’yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o’rinda kitob, to’plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to’liq nomi, nashr ko’rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko’rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko’rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo’lsa, barcha savol va e’tirozlar bo’yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo’lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezlari va ma’ruzalari chop etilmaydi. E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko’chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o’zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko’rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o’zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko’rib chiqilmaydi.



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2026. № 1-Son.